

UDC: 342.5(042)(575.1)
ORCID: 0000-0002-8897-1295

HOKIMIYAT YOKI MANSAB VAKOLATI DOIRASIDAN CHETGA CHIQISHNING OBYEKTI YUZASIDAN AYRIM MULOHAZALAR

Sagdullayev Fathulla Shukurullayevich,
Toshkent davlat yuridik universiteti
mustaqil izlanuvchisi,
e-mail: sagdullayev87@internet.ru

Annotatsiya. Mazkur maqolada hokimiyat yoki mansab vakolati doirasidan chetga chiqish jinoyati tarkibining asosiy belgisi sifatida ushbu qilmishning obyekti tahlil qilingan. Bunda mazkur jinoyatning boshqa mansabdorlik jinoyatlari qatorida umumiy, turdosh va maxsus obyektlari hamda ushbu jinoyatning o'ziga xos jihati sifatida bevosita asosiy va bevosita qo'shimcha obyektlari yuzasidan mualliflik xulosalari berilgan. Shuningdek, ushbu jinoyatning bevosita asosiy va bevosita qo'shimcha obyektlari raqobati yuzasidan fikrlar bildirilgan.

Kalit so'zlar: jinoyatning obyekti belgilari, jinoyat obyekti, hokimiyat yoki mansab vakolati doirasidan chetga chiqish, mansabdorlik jinoyatlari, ijtimoiy munosabat, inson huquqlari, ijtimoiy (huquqiy) manfaat, ijtimoiy xavfsizlik, ikki obyektli jinoyat, obyektlar raqobati, turdosh obyekt, maxsus obyekt, bevosita asosiy obyekt, bevosita qo'shimcha obyekt.

НЕКОТОРЫЕ СООБРАЖЕНИЯ ПО ПОВОДУ ОТКЛОНЕНИЯ ОТ СФЕРЫ ПОЛНОМОЧИЙ ИЛИ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНЦИИ

Сагдуллаев Фатхулла Шукруллаевич,
самостоятельный соискатель
Ташкентского государственного
юридического университета

Аннотация. В данной статье анализируется объект деяния как ключевой признак преступления, заключающегося в отклонении от властных или служебных полномочий. При этом даются авторские выводы об особенностях этих преступлений в отличие от других должностных преступлений, в том числе по общим, идентичным и специальным объектам, а также основным и дополнительным объектам непосредственно как специфическому аспекту этого преступления. Также высказываются мнения о прямой конкуренции основных и прямых дополнительных объектов с общими, родственными и особыми объектами этого преступления.

Ключевые слова: объективные признаки преступления, объект преступления, отклонение от служебных или служебных полномочий, служебные преступления, общественные отношения, права человека, общественный (правовой) интерес, социальное обеспечение, двухобъектное преступление, конкуренция объектов, связанный объект, специальный объект, прямой основной объект, непосредственно дополнительный объект.

SOME CONSIDERATIONS ABOUT DEVIATION FROM THE SCOPE OF AUTHORITY OR PROFESSIONAL COMPETENCE

Sagdullaev Fatkhulla Shukrullaevich,
Independent researcher of Tashkent State University of Law

Abstract. This article analyzes the object of this act as a key feature of the crime, which consists in deviation from authority or official authority. At the same time, the author's conclusions are given among other official crimes of this

crime and on general, identical and special objects, as well as main and additional objects directly as a specific aspect of this crime. Opinions are also expressed about direct competition between the main and direct additional objects of this crime about the common, related and special objects of this crime.

Keywords: *objective signs of a crime, the object of a crime, deviation from official or official authority, official crimes, public relations, human rights, public (legal) interest, social security, two-object crime, competition of objects, related object, special object, direct main object, directly additional object.*

Kirish

Jinoyat huquqi nazariyasida jinoyat tarkibi jinoyatning obyektiv (jinoyatning obyekti va obyektiv tomoni) va subyektiv belgilari (jinoyatning subyekti va subyektiv tomoni) dan iborat ekanligi qayd etilgan. Jinoyat haqida xabar bermaslik yoki uni yashirishning obyektiv belgilarini yoritar ekanmiz, eng avvalo, uning obyekti masalasiga to'xtalish maqsadga muvofiq. Ma'lumki, har qanday jinoyatning obyekti gorizontal (umumiy, maxsus, turdosh va bevosita obyektlar) va vertikal yo'nalish (bevosita asosiy, bevosita qo'shimcha va bevosita fakultativ obyektlar) bo'yicha turga ajratiladi.

Hokimiyat yoki mansab vakolati doirasidan chetga chiqish jinoyatining obyektini to'g'ri aniqlash ushbu jinoyatning ijtimoiy xavflilik darajasi haqida to'g'ri tasavvur hosil qilish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Sababi bunday holatda mazkur qilmishning aynan qaysi munosabatlarga tajovuz qilishi uning ijtimoiy xavflilik darajasini ifodalaydi. Bu haqda M.Usmonaliyev "Jinoyatning obyekti har bir jinoyat tarkibining zaruriy belgisidir. Jinoyat obyekti har bir tarkibining zaruriy belgisi bo'lishi bilan birga, muayyan jinoyatning mohiyati va uning ijtimoiy xavflilik darajasini ham belgilaydi" [1, 154-b.], deb ta'kidlagan edi. Shu jihatdan olib qaraganda, hokimiyat yoki mansab vakolati doirasidan chetga chiqish jinoyatining obyektini tahlil qilish va o'rganish asosida uning ijtimoiy xavfliligi namoyon bo'ladi. Xususan, mansabdorlik jinoyatlari tizimida hokimiyat yoki mansab vakolati doirasidan chetga chiqish jinoyatining ijtimoiy xavfliligi alohida o'rin egallaydi.

Material va metodlar

U.M. Mirzayev qayd etganidek, "jinoyat obyekti tushunchasini ta'riflashda jinoiy jazoga sazovor qilmish tufayli yetkazilgan yoki yetkazish xavfi bo'lgan zararning mohiyati va yo'nalishi to'g'risidagi masala asos qilib olinishi kerak"ligidan kelib chiqib [2], olimlar jinoyatning obyektini ijtimoiy munosabatlar [1, 152-b.; 3; 4; 5; 6], inson (odamlar) [7; 8], inson huquqlari [9], muayyan ijtimoiy

(huquqiy) manfaat [10; 11] yoki ijtimoiy xavfsizlik [12] deb hisoblaydi. Jinoyat huquqi nazariyasida "obyekt – ijtimoiy munosabatlar" konsepsiyasining inkor qilinishiga [13; 14] qaramay, mazkur konsepsiya tarafdorlari juda ko'p va u hozirda ham o'zining ustuvor mavqeyini yo'qotgani yo'q [15]. Bizning fikrimizcha ham masalaga "obyekt – ijtimoiy munosabatlar" konsepsiyasi nuqtayi nazaridan yondashish to'g'ridir.

Ta'kidlash lozimki, ayrim xorijiy jinoyat-huquqiy tizimlarda "jinoyat obyekti" termini umuman ishlatilmaydi. Uning o'rniga "huquqiy manfaat", "muhofaza qilinadigan huquqiy manfaat" va boshqa shu kabi tushunchalar qo'llaniladi [16].

Tadqiqot natijalari

Umuman olganda, jinoyat huquqi fanida jinoyatning obyekti to'g'risidagi masala atrofida bahs-munozara uzoq yillardan beri davom etayotganini inobatga olib, biz ushbu tadqiqot doirasida jinoyatning obyekti deganda, jinoyat qonuni bilan qo'riqlanadigan, g'ayriqonuniy qilmish bilan ziyon yetkazilgan yoki ziyon yetkazish xavfi tug'dirilgan ijtimoiy munosabatlar majmuyini tushunish lozim, degan an'anaviy konsepsiyaga amal qilamiz.

Jinoyat huquqi nazariyasida jinoyat obyektlarini "vertikal" va "gorizontal" tasniflash odat tusini olgan. Jinoyat obyektlarini tasniflashning to'rt bosqichli tizimidan kelib chiqib, kontrabandaning umumiy, maxsus, turdosh va bevosita obyektlari farqlanadi [17]. Bundan tashqari, "gorizontal" tasnifga ko'ra, kontrabandaning bevosita obyekti bevosita asosiy, qo'shimcha va fakultativ obyektlarga ajratish maqsadga muvofiq.

Milliy jinoyat qonunchiligida mansabdorlik jinoyatlariga jinoiy tajovuzning alohida turi deb qaraladi va mazkur tajovuzning obyekti va subyektiga alohida e'tibor berilgan [18]. Demak, hokimiyat yoki mansab vakolati doirasidan chetga chiqish jinoyatining obyektini aniqlash mazkur qilmishni boshqa g'ayriqonuniy tajovuzlardan ajratish, uning obyektiv tomoni va subyektiv bel-

gilarini tavsiflash uchun birinchi darajali ahamiyatga egadir.

Umumiy obyekt deganda, jinoyat qonuni bilan qo'riqlanadigan barcha ijtimoiy munosabatlar majmuyi tushuniladi [19]. Bu majmua JK 2-moddasida nazarda tutilgan obyektlardir. Jinoyat haqida xabar bermaslik yoki uni yashirishning umumiy obyekti ham mazkur moddaga asoslanadi.

Hokimiyat yoki mansab vakolati doirasidan chetga chiqish jinoyati JKning "Hokimiyat, boshqaruv va jamoat birlashmalari organlarining faoliyat tartibiga qarshi jinoyatlar" deb nomlangan beshinchi bo'limining "Boshqaruv tartibiga qarshi jinoyatlar" deb nomlangan XV bobiga kiritilgan. 1994-yilgi JK bo'yicha jinoyatlar obyektlarining to'rt darajali tizimiga [20] muvofiq, mansabdorlik jinoyatlarining maxsus obyekti qonun chiqaruvchi hokimiyat va boshqaruv faoliyatini amalga oshirishga doir ijtimoiy munosabatlar guruhi sifatida belgilangan (Unda jinoyatning O'zbekiston Respublikasi JK 2-moddasining birinchi qismida mustahkamlangan umumiy obyekt, qoida tariqasida, O'zbekiston Respublikasi JK Maxsus qismi bo'limining nomida qayd etilgan maxsus, turdosh va bevosita obyektlar farqlanadi. Ilmiy adabiyotlarda obyektning boshqacha tasniflari ham keltiriladi). JKning XV bobi nomidan kelib chiqadigan bo'lsak, tarkiblari unda bayon etilgan jinoyatlarining turdosh obyekti boshqaruv faoliyati sohasidagi ijtimoiy munosabatlar hisoblanadi.

JKning 206-moddasini XV bobga joylashtirish va tegishli ravishda ko'rib chiqilayotgan jinoyatni boshqaruv tartibiga qarshi jinoyatlar qatoriga kiritish uchun mezon bo'lib hokimiyat yoki mansab vakolati doirasidan chetga chiqish bevosita obyektining mazmuni va boshqaruv tartibiga qarshi jinoyatlar maxsus obyekti mazmunining xususi va umumiy obyektlar sifatidagi o'zaro nisbati xizmat qilgan.

Jinoyat huquqiga oid ilmiy adabiyotlarda ijtimoiy munosabatlar azaldan jinoyat obyekti sifatida qaraladi [21]. Shunga qaramay fanda mazkur tushunchaning ko'p sonli talqinlari mavjud. Ular turlicha tavsiflansa-da, adabiyotlarda bir-biridan butunlay farq qiladigan uch nuqtayi nazar ajratiladi: 1) ijtimoiy qadriyatlar sifatidagi u yoki bu hodisalarga doir qonun bilan qo'riqlanadigan ijtimoiy munosabatlar majmuyi jinoyatning obyekti hisoblanadi [22; 23]; 2) yuridik ahamiyatga molik

faktlar va voqealar yuzasidan vujudga keladigan, huquq normalari bilan tartibga solingan ijtimoiy munosabatlar jinoyatning obyekti hisoblanadi [24]; 3) jinoyatning obyekti – bu jinoyat bilan zarar yetkaziladigan umum ahamiyatiga molik ijtimoiy boylik (ne'mat, ijtimoiy munosabat, manfaat) [25].

Jinoyat obyektining asl mazmuni xususida uzoq yillar mobaynida davom etayotgan bahs-munozaralarning siklli xususiyatini e'tiborga olmaganda, bugungi kunda jinoyat obyektining jinoiy tajovuz natijasida kamaymaydigan va yo'q bo'lib ketmaydigan o'zgarmas voqelik sifatidagi mohiyatini aks ettiruvchi birinchi nuqtayi nazar, ayniqsa, asoslidir. Shunday qilib, ijtimoiy munosabatga zarar pozitiv (real) zarar-ziyon tarzida emas, balki uni inkor etish tarzida yetkaziladi. Aks holda, formal tarkibli jinoyatni obyektga emas deb topish kerak bo'lar edi.

Mazkur nuqtayi nazarga muvofiq, JKning XV bobida sodir etganlik uchun jinoiy javobgarlik nazarda tutilgan jinoyatlarning maxsus obyekti sifatida qonun bilan qo'riqlanadigan ijtimoiy qadriyatlar – davlat hokimiyati, davlat xizmati va mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlaridagi xizmatga doir ijtimoiy munosabat amal qiladi.

Shunga qaramay, ilmiy adabiyotlarda ko'rib chiqilayotgan jinoyatlar guruhining maxsus obyekti xususida ilgari surilgan boshqacha nuqtayi nazarlarga ham duch kelish mumkin. Masalan, professor G.M. Minkovskiy va professor V.P. Revin fikriga ko'ra, mazkur jinoyatlar guruhining maxsus obyekti sifatida davlat organlari, mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari, davlat muassasalari, Qurolli Kuchlar va harbiy tuzilmalar faoliyati amal qiladi [26]. Bu fikrga biz quyidagi sababga ko'ra qo'shila olmaymiz: Qurolli Kuchlar faoliyati (harbiy xizmat), Qurolli Kuchlar va ularning mol-mulkiga boshqarish borasidagi faoliyatdan farqli ravishda, JKning Yettinchi bo'limi ("Harbiy xizmatni o'tash tartibiga qarshi jinoyatlar")da nazarda tutilgan jinoyatlarning obyekti sifatida qaralishi mumkin.

JKning XV bobiga kiritilgan jinoyatlarning turdosh obyekti ilmiy adabiyotlarda qonunchilik, ijro va sud hokimiyati davlat organlari, mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari ko'rinishidagi boshqaruv apparatining normal faoliyati sifatida tavsiflanadi [27; 28]. Hokimiyat yoki mansab vakolati doirasidan chetga chiqish jinoyatining

turdosh va bevosita obyektlari bir-biri bilan o'zaro bog'liq [29; 30]. Bu jinoyat boshqaruv apparatining ayrim bo'g'ini mansabdor shaxslarining faoliyatini ularga berilgan vakolatlar doirasida va qonunda belgilangan tartibda ta'minlovchi aniq ijtimoiy munosabatlarga tajovuz qiladi. Uning qo'shimcha bevosita obyektini fuqarolarning huquqlari va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlari, davlat va jamoat manfaatlarini ta'minlash sohasidagi ijtimoiy munosabatlar tashkil etadi. Aynan qo'shimcha obyektga ziyon yetishi "asosiy obyektga qilingan tajovuzga jinoyat-huquqiy mazmun baxsh etadi" [31]. Binobarin, mazkur jinoyatning xususiyati shu bilan belgilanadiki, "qonunda ko'rsatilgan huquqlar va manfaatlarga ziyon yetkazish davlat apparati faoliyatini izdan chiqarishning aniq shaklini tashkil etadi" [32].

JK 206-moddasining birinchi qismida nazarda tutilgan hokimiyat yoki mansab vakolati doirasidan chetga chiqish jinoyati asosiy tarkibining bevosita obyektini JKning XV bobida nazarda tutilgan jinoyatlar maxsus obyektining mazmuni bilan muvofiq keladi.

Shuni qayd etish lozimki, hokimiyat yoki mansab vakolati doirasidan chetga chiqish jinoyatining bevosita obyektini muammosi jinoyat huquqi fanida hanuzgacha o'zining yagona yechimini topgani yo'q. Masalan, M.H. Rustamboyevning yozishicha, "Jinoyatning bevosita obyektini davlat hokimiyati va boshqaruv organlarining normal faoliyat yuritishini ta'minlaydigan ijtimoiy munosabatlar hisoblanadi. Qo'shimcha bevosita obyekt esa fuqarolarning qonuniy huquq va manfaatlarini ta'minlashga qaratilgan ijtimoiy munosabatlardir" [33]. R.A. Zufarov hamda M. Qodirovlar ham bu borada o'xshash fikr bildirib o'tganlar [34; 35]. B.J. Axrarov esa boshqaruv tartibiga qarshi mansabdorlik jinoyatlarining bevosita obyektini "davlat xizmati va davlat hokimiyati faoliyati amalga oshirilishining konkret sohalari" [36], deb qayd etadi.

A. Otajonov va M. Haydarovning ta'kidlashicha, mazkur jinoyatning bevosita obyektini davlat organi, jamoat birlashmasi, mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlarining normal faoliyat yuritishini ta'minlash sohasidagi ijtimoiy munosabatlardir. Mazkur jinoyatning qo'shimcha bevosita obyektini sifatida shaxslarning qonuniy huquq va manfaatlarini ta'minlash sohasidagi ijtimoiy munosabatlar tushuniladi [37]. Albatta, jinoyatning

bevosita obyektini yuzasidan ushbu qarash ham bugungi kunda munozarali. Chunki 2015-yildan e'tiboran mamlakatimizda jamoat birlashmasi boshqaruvidagi normal faoliyatni ta'minlash sohasidagi munosabatlar ushbu jinoyatning obyektlari ro'yxatidan chiqarildi.

Ayrim kriminalistlar mansabdorlik jinoyatlarining, shu jumladan, hokimiyat yoki mansab vakolatlarini doirasidan chetga chiqishning ham bevosita obyektini maxsus obyektini bilan bir xil [38; 39; 40; 41], deb hisoblaydilar. Bu nuqtayi nazar A.B. Saxarov tomonidan, ayniqsa, izchil bayon etilgan. Uning fikricha, mansabdorlik jinoyatining bevosita obyektini uning maxsus obyektidan ajratishga urinish muqarrar tarzda amaliy ahamiyatga ega bo'lmagan soxta konstruksiyalar o'ylab topilishiga olib keladi [42]. Bu nuqtayi nazar bir qator mualliflar tomonidan tanqid qilindi. Ularning fikricha, obyektlarni bunday birxillashtirish uchun hech qanday asos yo'q [43]. Hokimiyat yoki mansab vakolatlarini doirasidan chetga chiqish jinoyati bevosita obyektining mazkur talqini haddan tashqari kengdir, chunki mansabdorlik jinoyatlarining aniq turi ularning maxsus obyektini tashkil etuvchi munosabatlarning bir tomoni yoki bir nechta tomonini buzadi.

Hokimiyat yoki mansab vakolati doirasidan chetga chiqish jinoyati mansabdor shaxs qaysi hokimiyat organining vakolatlarini amalga oshirayotgan bo'lsa, shu hokimiyat organining obro'siga putur yetadi [44-50]. Aniqroq aytganda, mazkur jinoyat davlat boshqaruvi apparatining normal faoliyatiga tajovuz qiladi, boshqaruv organlari faoliyatini izdan chiqaradi, davlat institutlarini aholi ko'z o'ngida obro'sizlantiradi.

Shunday qilib, hokimiyat organlarining obro'si ularning muhim tarkibiy elementlaridan biridir. Shu tufayli ham mansabdor shaxsning fuqarolarning huquqlari yoki qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlariga yoxud davlat yoki jamoat manfaatlariga ziyon yetkazgan g'ayriqonuniy harakatlari hokimiyat organlarining obro'siga, hech shubhasiz, putur yetkazadi. Zero, mazkur organlar faoliyatining asosiy mazmunini inson va fuqarolarning huquqlari va erkinliklariga rioya etish hamda ularni himoya qilish tashkil etishi lozim.

Demak, yuqoridagi tahlillardan xulosa sifatida hokimiyat yoki mansab vakolati doirasidan chetga chiqishning obyektini yuzasidan quyidagilar bayon etiladi:

turdosh obyekti – hokimiyat va boshqaruv organlarining normal faoliyatini tartibga soluvchi ijtimoiy munosabatlar;

maxsus obyekti – davlat hokimiyati va boshqaruv organlarida boshqaruv tartibini belgilovchi ijtimoiy munosabatlar;

bevosita asosiy obyekti – davlat organi, davlat ishtirokidagi tashkilot yoki fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organining normal faoliyati va obro'sini ta'minlovchi ijtimoiy munosabatlar;

bevosita qo'shimcha obyekti – fuqarolarning huquqlari yoki qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlar yoxud davlat yoki jamoat manfaatlarini muhofaza qiluvchi ijtimoiy munosabatlar hisoblanadi.

Ko'rib turganimizdek, ushbu jinoyatda bir nechta bevosita obyektlar mavjud. Odatda, eng katta qiyinchiliklar jinoyat-huquqiy munosabatlarning raqobatlashuvchi bir nechta obyektlaridan iborat bo'lgan jinoyatlarni kvalifikatsiya qilishda va aybdor bir vaqtning o'zida tajovuz qiluvchi ijtimoiy munosabatlar mustaqil jinoyat obyektlarini hosil qiladigan jinoyatlar majmuyi bilan bog'liq hollarda yuzaga keladi.

Qayd etish lozimki, jinoyat bevosita obyektlarining raqobati ijtimoiy hayotning murakkabligi natijasida paydo bo'ladi. Voqelik hodisalarining umumiy o'zaro aloqasi shunga olib keladiki, ko'pgina jinoiy qilmishlar bir qator o'xshash ijtimoiy munosabatlar sohasiga zarar yetkazadi. Qonun chiqaruvchi muayyan jinoyat uchun javobgarlikni belgilar ekan, ushbu holatni hisobga oladi. Jinoyat tarkibini tuzish, uni jinoyat qonunchiligi tizimidagi muayyan bobga kiritish qilmish bilan barcha ijtimoiy munosabatlar sohasiga – bevosita obyektlarning barchasiga yetkaziladigan zararni hisobga olgan holda amalga oshiriladi. Biroq bu yerda asosiy bevosita obyekt, ya'ni tegishli norma qaysi obyektga qo'riqlash uchun qabul qilinayotgan bo'lsa, shu obyekt birinchi darajali ahamiyat kasb etadi. Bunda qo'shimcha bevosita obyektlarga zarar yetkazish ikkinchi darajali ahamiyatga ega bo'ladi, biroq jinoyatning bunday oqibatlari e'tibordan soqit etilmaydi va javobgarlikni og'irlashtiruvchi belgilar yordamida hisobga olinadi.

Ikki obyektli jinoyatlarning yana bir xususiyati shundaki, ayrim hollarda qo'shni obyektga zarar yetishi muqarrar bo'ladi, ayrim hollarda esa bunday muqarrarlik mavjud bo'lmaydi. Demak, umumiy qoidaga ko'ra, qo'shimcha obyekt

ijtimoiy manfaatlar nuqtayi nazaridan mazkur jinoyat tarkibida asosiy bevosita obyekt bilan taqqoslaganda, kamroq darajada ijtimoiy qimmatga ega bo'ladi.

Jinoyatning raqobatlashuvchi bir nechta bevosita obyektlari orasidan bevosita asosiy, bevosita qo'shimcha va fakultativ bevosita obyektlarini farqlash qilmishni kvalifikatsiya qilish muammosini yechishni sezilarli darajada yengillashtiradi, biroq uni to'liq yechish imkonini bermaydi. Ushbu maqsadga erishish uchun bevosita qo'shimcha yoki fakultativ bevosita obyektning jinoyatni sodir etish mexanizmidagi rolini aniqlash talab etiladi. Bunda qo'shimcha bevosita obyektga zarar yetkazish aksariyat hollarda asosiy bevosita obyektga zarar yetkazish usuli, uning tarkibiy qismi hisoblanishi ayon bo'ladi.

Ba'zan asosiy bevosita obyektga zarar yetkazish faqat qo'shimcha bevosita obyektga zarar yetkazish yo'li bilan amalga oshirilishi mumkin. Bevosita qo'shimcha obyektga zarar yetkazish asosiy bevosita obyektga zarar yetkazishning muqarrar usuli, tarkibiy qismi hisoblangani va aks holda, zarar yetkazish mumkin emasligi tufayli, bunday jinoyatlarning tarkiblari qo'shimcha bevosita obyektga zarar yetkazishni ham qamrab oladi, degan xulosaga kelish mumkin. Demak, bunday qilmishlar faqat jinoyat qonuni Maxsus qismining jinoyat-huquqiy qo'riqlash asosiy bevosita obyektiga tajovuz uchun javobgarlik nazarda tutilgan moddasi bo'yicha kvalifikatsiya qilinishi lozim.

Yuqorida bayon etilganlar jinoyat-huquqiy munosabatlarning boshqa obyektlariga tajovuz qiladigan ijtimoiy xavfli qilmishlarni kvalifikatsiya qilishga doir ayrim umumiy qoidalarni ta'riflash imkonini beradi: qo'shimcha bevosita obyektga zarar yetkazish asosiy bevosita obyektga zarar yetkazish usuli, uning tarkibiy qismi hisoblanadigan qilmish yagona jinoyatni hosil qiladi. Sodir etilayotganda, qo'shimcha bevosita obyektga zarar yetkazish fakultativ tarzda amalga oshiriladigan qilmish esa jinoyatlar majmuyini vujudga keltiradi.

Ushbu qoidalardan huquq ijodkorligi va huquqni qo'llash faoliyatida foydalanish jinoyatlarni, shu jumladan, hokimiyat yoki mansab vakolati doirasidan chetga chiqishni kvalifikatsiya qilishning murakkab muammosini yechishni sezilarli darajada yengillashtiradi hamda jinoyat

huquqi fanining jinoyatlar majmuyi va ularni kvalifikatsiya qilish to'g'risidagi ko'pgina bahsli masalalarini yechishga ko'maklashadi.

Jinoyatning bevosita obyektlari raqobati barcha mansabdorlik jinoyatlari qatorida tahlil qilinayotgan hokimiyat yoki mansab vakolati

doirasidan chetga chiqishda va ayrim boshqa jinoyatlarda ham yuzaga kelishi mumkin. Qilmishni to'g'ri kvalifikatsiya qilish uchun tajovuzning asosiy bevosita obyektini tanlash bunday hollarda ham yuqorida ko'rib chiqilgan qoidalar bo'yicha amalga oshiriladi.

REFERENCES

1. Usmonaliev M. Criminal Law (General Part): Textbook. Tashkent, Yangi asr avlodi, 2005, p. 154.
2. Novoselov G.P. Teaching about the object of the attack. Methodological aspects. Moscow, Norma, 2001, p. 45.
3. Rustamboyev M.H. Criminal law (general part). A textbook for universities. Tashkent, TSUL, 2006, p. 125.
4. Criminal law of Russia. Part General: Textbook for Universities. Ed. prof. L. L. Kruglikov. Moscow, BEK, 1999, pp. 117-119.
5. Russian criminal law. In two volumes. A common part. Ed. prof. A.I. Raroga. Moscow, Jurist, 2001, vol. 1, pp. 103-105.
6. Sharapov R.D. Physical abuse in criminal law. Saint Petersburg, Legal Center Press, 2001, pp. 160-167.
7. Kudryavtsev V.N. On the question of the relationship between the subject and the subject of the crime. Soviet state and law. Moscow, 1951, no. 8, pp. 58-59.
8. Novoselov G.P. The doctrine of the object of the crime. Methodological aspects. Moscow, Norma, 2001, p. 60.
9. Krasikov A.N. Criminal law protection of human rights and freedoms in Russia. Saratov, 1996, pp. 2-3.
10. Norbutaev E.Kh. Problems of the effectiveness of legal measures to combat crime (theory and practice). Author's abstract. dis. doct. Sciences of law. Tashkent, 1991, p. 32.
11. Naumov A.V. Criminal law. A common part. Lecture course. Moscow, 1996, pp. 146-151.
12. Zatelepin O. To the question of the concept of the object of a crime in criminal law. Criminal law. Moscow, 2003, no. 1, pp. 29-31.
13. Criminal law of Russia. Textbook for universities. In two vol. A common part. Moscow, 1998, vol. 1, pp. 101-105.
14. Rastoropov S. Concept of the object of the crime: history, state, perspective. Criminal law. Moscow, 2002, no. 1, pp. 37-40.
15. Mirzaev U.M. Problems of liability for embezzlement or robbery. Tashkent, TSUL, 2009, p. 37.
16. Krylova E., Serebrennikova A.V. Criminal law of modern foreign countries (England, USA, France, Germany). Textbook. Moscow, 1997, pp. 58-73.
17. Frolov E.A. Controversial issues of the doctrine of the object of the crime. sat. scientific works. Sverdlovsk, 1968, issue 10, p. 203.
18. Ahrorov B.D. Laws on official crimes. New codes of the Republic of Uzbekistan: theory and practice. Proceedings of the scientific-practical conference. Tashkent, 1994, pp. 86-89.
19. Rustambaev M.H. Course of Criminal Law of the Republic of Uzbekistan. T.1. General section. The Doctrine of Crime. A Textbook. Tashkent, Ilm Ziyo Publ., 2010, p. 141.
20. Gaukhman L.D. Qualification of crimes: law, theory, practice. Moscow, 2005, p. 79.
21. Piontkovsky A.A. Criminal law of the RSFSR. Part General. Moscow, 1924, pp. 129-130.
22. Aminov D.A. Object of the crime. Criminal law of Russia. General and Special parts. Textbook. Ed. V.P. Revin. Moscow, Jurid. lit., 2000, p. 93.
23. Criminal law. General and Special parts. Complete intensive course in algorithms. Ed. L.D. Gaukhman and A.A. Engelhardt. Moscow, 2003, p. 8.
24. Kibalnik A.G., Solomonenko I.G. Lectures on criminal law. Stavropol, 2000, p. 44.
25. Criminal law of the Russian Federation. Ed. L.V. Inogamova-Khegai. A common part. Moscow, 2002, p. 41.
26. Criminal law of Russia. General and Special parts. Textbook. Ed. V.P. Revin. Moscow, Jurid. lit., 2000, p. 705.

27. Volzhenkin B.V. Service crimes: Commentary on legislation and judicial practice. Saint Petersburg, 2005, p. 52.
28. Criminal law. Special part: Textbook for universities. Ed. I.Ya. Kozachenko, Z.A. Neznamova, G.P. Novoselov. Moscow, 1998, p. 593.
29. Zdravomyslov B.V. Official crimes. Concept and qualifications. Moscow, 1975, p. 9.
30. Asnis A.Ya. Criminal liability for official crimes in Russia. Moscow, 2004, p. 200.
31. Rarog A.I. Guilt and qualification of crimes. Moscow, 1982, p. 59.
32. Rustambaev M.H. Course of criminal law of the Republic of Uzbekistan. Volume IV. Special section. Crimes in the field of economics. Crimes in the field of ecology. Crimes against the order of activity of bodies of power, administration and public associations. Textbook. Tashkent, Ilm Ziyoyi, 2011, p. 254.
33. Comments on the Criminal Code of the Republic of Uzbekistan. Tashkent, Adolat, 1997, p. 269.
34. Kadyrov M. Criminal law of the Republic of Uzbekistan. Tashkent, Adolat, 1997, p. 261.
35. Ahrarov B.J. Problems of liability for official crimes against management order. Tashkent, 2008, p. 42.
36. Criminal law. Special section: Textbook. R. Kabulov, A. Otajanov, M. Rustambaev and others. Responsible editor: Sh.Ikramov. Tashkent, Academy of the Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan, 2014, p. 451.
37. Criminal law. General part: Textbook. Ed. N.I. Vetrova, Yu.I. Lyapunova. Moscow, 1997.
38. Lyapunov Yu.I. Official crimes. Textbook. Kiev, 1988, p. 17.
39. Kucheryavy N. The concept of an official in criminal law. Sci. app. Kirg. state un-t. Frunze, 1958, issue I, p. 104.
40. Commentary on the Criminal Code of the Russian Federation (itemized) Ed. Prof. N.G. Kadnikov. Moscow, Book World, 2004, p. 754.
41. Sakharov A.B. Responsibility for abuse of office under Soviet criminal law. Moscow, 1956, p. 37.
42. Lysov M.D. Responsibility of officials in criminal law. Kazan, 1972, p. 78.
43. Khamidov N. Concept of transnational crimes and the social need to establish responsibility for them. Review of law sciences. 2020, vol. 5, no. Special issue.
44. Salaev N., Khamidov N. Qualification Of Smuggling. Uzbek Legislation And Foreign Experience. Ilkogretim Online, 2021, vol. 20, no. 3.
45. Khamidov N. et al. Criminal-legal aspects of the drug abuse in some countries and imposed approaches against it. International Journal of Legal Studies (IJOLS). 2018, vol. 4, no. 2, pp. 177-183.
46. Salaev N. The issue on implementing the recommendations of international standards on certain categories of convicts in Uzbekistan. Journal of Law Research, 2020, vol. 5, no. 5.
47. Salaev N. Penitentiary system of contemporary Uzbekistan: current condition and future promises in the reformation process. Review of law sciences, 2018, no. 2.
48. Nodirbek S., Law D.I. Preventive legal status of convicts in the penitentiary system of Uzbekistan.
49. Salaev N.S. Criminal punishment: an attempt at social and philosophical understanding or a problem that has not been solved for centuries? 2016.
50. Salaev N. Differentiation, individualization, execution of criminal punishments and its goals: way to success. Review of law sciences, 2017, vol. 1, no. 1.

YURIDIK FANLAR AXBOROTNOMASI

ВЕСТНИК ЮРИДИЧЕСКИХ НАУК

REVIEW OF LAW SCIENCES

Huquqiy ilmiy-amaliy jurnal

Правовой научно-практический журнал

Legal scientific-practical journal

2021/4

BOSH MUHARRIR:

Tashkulov Akbar Djurayevich
Toshkent davlat yuridik universiteti rektori

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Salayev Nodirbek Saparbayevich
Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, y.f.d.,
professor

Mas'ul muharrir: O. Choriyev

Muharrirlar: Sh. Jahonov, K. Abduvaliyeva,
F. Muhammadiyeva, Y. Yarmolik

Texnik muharrirlar: U. Sapayev, D. Rajapov

Tahririyat manzili:

100047. Toshkent shahar, Sayilgoh ko'chasi, 35.
Tel.: (0371) 233-66-36 (1169)

Web-sayt: www.tsul.uz

E-mail: lawjournal@tsul.uz

Jurnal 24.11.2021-yilda tipografiyaga
topshirildi. Qog'oz bichimi: A4.
Shartli 23,52 b.t. Adadi: 100. Buyurtma: № 63.

TDYU tipografiyasida chop etildi.